



TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



O‘qituvchi talabalarning bilimlarini masofadan turib qulay vaqtda, auditoriyaning mavjud yoki yo‘qligidan qat’i nazar, ma’lum bir guruh uchun o‘quv jarayonini individual ravishda tashkil qilishi mumkin. Bundan tashqari, muhim axborot kommunikatsion texnologiyalar zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari tomonidan ishlab chiqilgan axborot resurslaridan foydalangan holda talabalarga kerakli bilimlarni olish imkoniyatini berishdir. Shubhasiz, internet-resurslardan foydalanish imkoniyatlari nihoyatda katta. Global internet tarmog‘i foydalanuvchilar joylashuvidan qat’i nazar zarur ma’lumotlarni olish uchun sharoit yaratadi ta’lim jarayonining xorijiy tillarni o‘rganish va o‘qitishning uslubiy rivojlanishi zamonaviy ilmiy adabiyotlarda yetarli darajada o‘rganilmaganligi ushbu tadqiqotda ko‘tarilgan masalalarning dolzarbligini yanada oshiradi. Ijtimoiy media tarmoqlari va zamonaviy ta’lim texnologiyalari ijtimoiy hayotning barcha sohalariga, shu jumladan xorijiy tillarni o‘qitish jarayoniga ham kirib bordi.

Mamlakatimizda ta’lim tizimini zamonaviy modernizatsiya qilish, o‘qitishning veterinariya yo‘nalishlarida tahsil olayotgan talabalarga ingliz tilini o‘rgatish tamoyillari va yondashuvlarida sezilarli o‘zgarishlarni nazarda tutadi. Oliy ta’lim muassasalari o‘qituvchilari oldida axborot bilan ishlash uslublariga ega bo‘lgan va o‘z intellektual, ijodiy salohiyatini saqlash hamda rivojlantirish uchun axborot texnologiyalaridan yetarli darajada foydalana oladigan mutaxassislarni tayyorlash vazifasi turibdi.

Talabalarda ingliz tili bo‘yicha kasbiy axborot kompetensiyasini shakllantirish muloqotning umumiyligi didaktik prinsiplari, kasbiy yo‘nalish va axborot kompetensiyasining o‘ziga xos uslubiy prinsiplariga asoslanadi, bu veterinariya yo‘nalishdagi talabalarga ingliz tilini o‘rgatish paytida ijtimoiy media tarmoqlaridan foydalanishni o‘z ishiga oladi.

Kasbiy faoliyatda ishlataladigan nutq faoliyat turlariga integrativ yondashuv kommunikativ kompetensiyani tezlashtirishga va rivojlantirishga yordam beradi. Bu jarayonda o‘qituvchilardan ham, talabalardan ham yuqori interfaol bo‘lish talab etiladi. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun tadqiqotchilar va olimlar tomonidan turli zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ko‘plab mashqlar tavsiya qilingan va ulardan foydalanish yo‘llari ko‘rsatilgan.

ADABIYOTLAR:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 19 майдаги ПҚ-5117-сонли “Ўзбекистон Республикасида хорижий тилларни ўрганишни оммалаштириш фаолиятини сифат жиҳатидан янги босқичга олиб чиқиш чора-тадбирлари тўғрисида” ги қарори

2. ¹ Ковалева А.Г. Обучение иностранному языку в условиях информационно-коммуникационной профессиональнообразовательной среды // Язык в сфере профессиональной коммуникации: Часть 2: Материалы международной научнопрактической конференции преподавателей, аспирантов и студентов, 19-20 апреля 2018 года. — Екатеринбург: Издательство УМЦ-УПИ, 2018. — С. 57–62





TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



3. ¹ Родионова Н.В., Яранская М.Н. Потенциальные возможности использования социальных сетей в качестве образовательного ресурса // Сб. материалов Всероссийской студенческой научно-практической конференции «Научное сообщество студентов: проблемы художественного и музыкального образования». — Чебоксары: Чувашский государственный педагогический университет им. И.Я.Яковлева. — 2017. — С. 66–69.
4. Сайидахмедов Н. Янги педагогик технологиялар. — Тошкент: Молия, 2003.
5. Беспалко В. П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения. — М. : Изд-во Института профессионального образования Министерства образования России, 1995.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



XORIJIY TILLARNI O‘RGANISHNING JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O‘RNI

Kenjaboev Shokir Abdulxalimovich

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va
bioteknologiyalar universiteti Toshkent filiali
“O‘zbek va xorijiy tillar” kafedrasi mudiri dotsenti.
email: shokir29111962@mail.ru. tel: +998915865962*

Annotatsiya: Maqolada Respublikamizning dunyo hamjamiyatiga integratsiyalashuvida xorijiy tillarni mukammal va puxta egallagan yetuk mutaxassis kadrlarni tayyorlash vazifalari va uning ahamiyati bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, Ijtimoiy mediadan foydalanish, zamonaliviy talim texnologiyalari, integratsiya, veterinariya atamalari.

Аннотация: В статье описаны задачи и значение подготовки высококвалифицированных специалистов, владеющих иностранными языками в интеграции нашей республики в мировое сообщество.

Ключевые слова: информационно-коммуникационные технологии, использование социальных сетей, современные технологии обучения, интеграция, ветеринарные термины.

Annotation: The article describes the tasks and importance of training highly qualified specialists who speak foreign languages in the integration of our republic into the world community.

Keywords: information and communication technologies, social media use, modern training technologies, integration, Veterinary Terms.

Ayni davrada xorijiy tillarni bilish Umumyevropa CEFR malaka talablari asosida baholanmoqda. Bundan ko‘rinadiki ta’lim sifatini xalqaro darajaga ko‘tarish, xorijiy til ko‘nikmalarini takomilashtiruvchi yangi metod va vositalarni joriy qilish, kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantiruvchi usullarni aniqlash hamda uni integrativ yondashuvlar asosida o‘qitish, til o‘rganishning uzlusizligi va uzviyligini ta’minalash kabi masalalar ta’lim nazariyasi va metodikasining dolzarb muammolari sirasiga kiradi.

Bugungi kunda ko‘plab universitetlar, til markazlari, o‘qituvchilarning ijtimoiy tarmoqlarda o‘zlarining sahifalari mavjud bo‘lib, akademik guruhlarda o‘zlarining internet jamoalarini tashkil qilib, unda ko‘plab o‘qituvchilar o‘z guruhlarining a’zolari bilan muloqot qiladilar va ma’lumot almashadilar. Shu asosda ular o‘zları ta’lim beradigan talabalariga o‘qib o‘rganishlari uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni yuklash uchun ijtimoiy media (telegramm, instagramm, whatsapp va x.k) dan foydalanishlari tobora rivojlanib bormoqda. Ijtimoiy mediadan foydalanish salohiyati va xususiyatlari, avvalambor, ular o‘rtasida ma’lumot tarqatish va qabul qilish imkoniyatining tezligi bilan bog‘liq bo‘lib,





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



ulardan ta’lim maqsadlarida foydalanish auditoriyadan tashqarida ham dars mashg‘ulotlarini o‘tkazish imkoniyatini beradi, bu esa talabalarni qo‘srimcha ravishda rag‘batlantiradi va ularni mustaqil ishlashlari uchun motivatsiya beradi. Zamonaviy jamiyat ta’lim tizimining vazifasi madaniyatlararo aloqa samaradorligini va ko‘p madaniyatli shaxsning shakllanishini ta’minlashdir. Bu boradagi muhim omil - xorijiy tilni bilishdir. Bu jarayonda zamonaviy ijtimoiy tarmoqlardan samarali foydalanish natijaga erishishning o‘ziga xos turi deb aytishimiz mumkin. Ushbu tadqiqotimizda zamonaviy ijtimoiy media talabalarga ingliz tilini o‘qitishning qo‘srimcha vositasi sifatida qaraldi. Veterinariya yo‘nalishi bo‘yicha tahsil olayotgan talabalarga sohaviy ingliz tilini o‘rgatish jarayonida ularning kasbiy faoliyati uchun asos bo‘lgan zamonaviy axborot texnologiyalari bilim olishning muhim vositalaridan biri bo‘lib xizmat qiladi. Lekin, ingliz tilini o‘qitishning qo‘srimcha vositasi sifatida ijtimoiy media va zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan samarali foydalanish metodikasi ilmiy va uslubiy adabiyotlarda yetarli darajada yoritib berilmagan.

Ushbu tadqiqotning mavzusi ham veterinariya yo‘nalishidagi talabalarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda sohaviy ingliz tilini o‘qitish texnologiyalarini takomillashtirish va kasbiy ingliz tilini talabalarga o‘rgatishda ta’lim imkoniyatlari va ularda mutahasisslik axborot kompetensiyasini shakllantirish masalasidir. Mamlakatimizda ta’lim mavzusidagi istiqbol strategiyasi 2030-yillarga mo‘ljallangan bo‘lib, uning asosiy maqsadi yoshlarga xorijiy tillarni o‘qitish, ingliz tilini nofilologik yo‘nalishlarda o‘rgatishga bo‘lgan o‘zgaruvchan ehtiyojlar va yangi O‘zbekiston jamiyati va iqtisodiyotini rivojlantirishning uzoq muddatli maqsadlariga muvofiq kasbiy ta’limining yuqori sifatini ta’minlashdir.

Ushbu tadbirlar doirasida veterinariya yo‘nalishida tahsil oluvchilar uchun chet tillarini bilish, o‘zining tanlagan sohasidagi zaruriy vakolatlarni belgilaydigan ta’lim standartlari qabul qilingan.

Shu bilan birgalikda, ta’lim jarayonining xorijiy tillarni o‘rganish va o‘qitishning uslubiy rivojlanishi zamonaviy ilmiy adabiyotlarda yetarli darajada o‘rganilmaganligi ushu tadqiqotda ko‘tarilgan masalalarining dolzarbligini yanada oshiradi. Ijtimoiy media tarmoqlari va zamonaviy ta’lim texnologiyalari ijtimoiy hayotning barcha sohalariga, shu jumladan chet tillarni o‘qitish jarayoniga ham kirib bordi. Ijtimoiy tarmoqlarning mohiyati E. Dyurkgeym va F. Tyonnis yozganidek, odamlar o‘rtasida aloqalarni izlash va o‘rnatishdir. Ilmiy jihatdan ushu olimlarning tadqiqoti ijtimoiy guruhlar shaxsiy va to‘g‘ridan-to‘g‘ri ijtimoiy aloqalar shaklida mavjud bo‘lishi mumkin degan fikrni rivojlantirdi. Xuddi shu atama 1954-yilda ingliz sotsiologi Jeyms Barns tomonidan joriy qilingan. Shunday qilib, olim ijtimoiy obyektlar (jamoa, ijtimoiy guruh, individual) bo‘lgan guruhlarning tasnifini ishlab chiqdi. Bugungi kunda «ijtimoiy tarmoq» keyinchalik esa «ijtimoiy media» tushunchasi foydalanuvchilarning internetdagи maxsus aloqa turi sifatida talqin qilinmoqda. Tadqiqotchi D. Gilpin esa ijtimoiy tarmoqlarni o‘zaro aloqalar va axborot uzatish kanallari rolini o‘ynaydigan interaktiv onlays-media deb ta’riflaydi³⁸.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Ayniqsa, u buni ta’lim tizimida madaniy aloqalarni rivojantirish hamda til o‘rganishda muhim ahamiyatga ega deb ta’kidlaydi. A. Xendli va A. Shapman ijtimoiy mediani hammamizga o‘zaro aloqada bo‘lishimiz va ma’lumot almashishimizga imkon beradigan doimiy ravishda rivojlanib borayotgan onlayn vositalar, platformalar va dasturlarning to‘plami deb tushunadilar³⁹. A.G. Kovalevning fikricha, ijtimoiy media ko‘nikmalarni shakllantirish va chet tilini o‘rganishga doir bilimlarni rivojlantirish bo‘yicha doimiy ish olib borishga imkon beradi⁴⁰. O‘qituvchi talabalarning bilimlarini masofadan turib qulay vaqtda, auditoriyaning mavjud yoki yo‘qligidan qat’i nazar, ma’lum bir guruh uchun o‘quv jarayonini individual ravishda tashkil qilishi mumkin. Bundan tashqari, muhim axborot kommunikatsion texnologiyalar zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari tomonidan ishlab chiqilgan axborot resurslaridan foydalangan holda talabalarga kerakli bilimlarni olish imkoniyatini berishdir. Shubhasiz, internet-resurslardan foydalanish imkoniyatlari nihoyatda katta. Global internet tarmog‘i foydalanuvchilar joylashuvidan qat’i nazar zarur ma’lumotlarni olish uchun sharoit yaratadi. Shuni ta’kidlash kerakki, butun dunyoda internet, ijtimoiy tarmoqlardan tobora kengroq foydalanilmoqda. Shu nuqtai nazardan, ushbu texnologiyalar allaqashon butun dunyo bo‘ylab faol aholining, shu jumladan ta’lim oluvchilarning kundalik hayotining ajralmas qismiga aylangani aniq bo‘lib turibdi. Shunday qilib, aynan shu texnologiyalar, foydalanuvchini har kuni, 24 soat davomida doimo kuzatib boradigan, ma’lum xizmatlarni, shu jumladan ta’lim xizmatlarini olish uchun qulay vositaga aylandi. Bugungi kunda nafaqat mamlakatimizda, balki butun dunyoda ijtimoiy mediadan keng foydalanishni o‘quv jarayoniga kiritish masalasi pedagogik davralarda juda faol muhokama qilinmoqda. N. V. Rodionova va M. N. Yaranskayaning so‘zlariga ko‘ra, “internet-auditoriyaning aksariyati uchun ijtimoiy media mafkurasi va interfeysining ravshanligi talabalarning yangi kommunikativ makonga moslashish bosqichini chetlab o‘tib, vaqt ni tejashtga imkon beradi⁴¹”.

Ko‘plab ta’lim muassasalarining ijtimoiy tarmoqlarda sahifalari mavjud bo‘lib, ular talabalar bilan muloqot qilish, o‘quv dasturlari to‘g‘risida ma’lumot berish yoki shunchaki har qanday manfaatdor foydalanuvchi qo‘shilishi mumkin bo‘lgan jamoa sifatida veb-maydon sifatida foydalanmoqda. Shu ma’noda, ijtimoiy media tarmoqlari ingliz tilini o‘rgatish uchun qimmatli funksiyalarga ega. Ularni nafaqat aloqa vositasi va tezkor ma’lumot almashish vositasi sifatida ishlatish mumkin. Balki, ulardan tom ma’noda ustoz sifatida foydalanish imkoniyati yaratiladi. Ayniqsa, veterinariya meditsinasi yo‘nalishdagi soha mutaxassislari uchun ijtimoiy media tarmoqlarini o‘quv jarayonida metodik jihatdan to‘g‘ri amalga oshirish barcha ishtirokchilarga mustaqil ravishda yoki bиргаликда ta’lim faoliyatini diversifikatsiya qiluvchi onlayn ta’lim mazmunini yaratishga xizmat qiladi.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Shu o‘rinda yana bir muhim jihatni ta’kidlash joizki, talabalarga sohaviy ingliz tilini o‘qitishda ijtimoiy mediadan foydalanish masalasi bilan ta’lim jarayonida ijtimoiy mediatarmoqlaridan foydalanish asosida ingliz tili kasbiy axborot-kommunikatsiya kompetensiyasini shakllantirish bir biriga chambarchas bog‘liq bo‘lgan hodisa hisoblanadi. Mazkur ilmiy-metodik muammoga oid ilmiy adabiyotlarni o‘rganish va tahlil qilish uning izlanishlarining turli yo‘nalishlari mavjudligini ko‘rsatadi. Bular:

tilni aloqa vositasi sifatida oshib beradigan kommunikativ yondashuv;

tanqidiy fikrlashni, professional va ishbilarmonlik aloqalari holatlarida o‘z nuqtai nazarini aniq bayon qilish qobiliyatini shakllantirishga qaratilgan kognitiv yondashuv;

ta’lim olish va zamonaviy jamiyat ehtiyojlari bilan bog‘liq bo‘lgan malakaga asoslangan yondashuvlardir.

Mamlakatimizda ta’lim tizimini zamonaviy modernizatsiya qilish, o‘qitishning veterinariya yo‘nalishlarida tahsil olayotgan talabalarga sohaviy ingliz tilini o‘rgatish tamoyillari va yondashuvlarida sezilarli o‘zgarishlarni nazarda tutadi. Ta’lim muassasalarini o‘qituvchilari oldida axborot bilan ishlash uslublariga ega bo‘lgan va o‘z intellektual, ijodiy salohiyatini saqlash hamda rivojlantirish uchun axborot texnologiyalaridan yetarli darajada foydalana oladigan mutaxassislarini tayyorlash vazifasi turibdi. Ingliz tilini o‘qitishga kelsak, bu vazifa veterinariya sohasi yo‘nalishdagi talabalarning ingliz tili kasbiy malakalari bilan birgalikda axborot-kommunikatsiya qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirishning muhimligini anglatadi. Til ta’limi bilan bog‘liq ijtimoiy talab bir necha o‘n yillar davomida o‘zgardi, ammo uning asosiy ma’nosini doimo chet tilini o‘zlashtirishga qisqartirildi. Ingliz tilini o‘qitish metodikasi rivojlanib borishi bilan “chet tilini amaliy o‘zlashtirish” tushunchasining o‘zi takomillashtirildi.

Kommunikativ kompetensiya atamasi metodologiyada tilni bilish darajasi ko‘rsatkichi sifatida keng qo‘llaniladi. Ushbu atamani N. Xomskiy til kompetensiyasini “intellektual qobiliyatlar tizimi, erta bolalik davrida va boshqa ko‘plab omillar bilan o‘zaro aloqada rivojlanadigan bilim va e’tiqodlar tizimi⁴²”, deb ta’riflagan. Vaqt o‘tgani sari bu atamaning ta’rifi kengayib bordi. “Kommunikativ kompetensiya” keyinshalik E. I. Baguzinaning chet tilidagi kommunikativ kompetensiyasi (kompetensiyani realizatsiya qilish) “insonning chet el tilidagi bayonotlarni va ma’lumotlarni ma’lum vaziyatga, aniq maqsadga muvofiqligi, kasbiy faoliyatning kommunikativ niyati va vazifalariga muvofiq ravishda tushunishga va ishlab chiqarishga tayyorligi va qobiliyat⁴³” sifatida tasniflandi. Ta’lim jarayonida talabalarning ingliz tili kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish jarayoni samaradorligini tizimli ravishda baholash kerak. Buning uchun “Umumiy Yevropa kompetensiyasi”da ta’kidlangan har bir subkompetensiyani shakllantirish ko‘rsatkichlarini bilish zarur.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Birinchisi, til kompetensiyasi: sub’ekt nutqining savodxonligi; ingliz tilini bilish erkinligi darajasi; ishlatalidigan lingvistik (leksik, grammatik, fonetik, imlo) vositalarning xilma-xilligi; obrazlilik, ekspresivlik, idiomatik nutq.

Ikkinchisi, nutq kompetensiyasi: nutq faoliyatining barcha turlarini muvaffaqiyatli amalgalashish; argumentatsiya qilishning turli usullariga, fikrni taqdim etish shakllariga ega bo‘lish (tahlil, sintez, taqqoslash, umumlashtirish); nutqning turli xil aloqa usullari va aloqa maqsadiga erishish uchun ekspressivlik texnikasi.

Uchinchisi, ijtimoiy-madaniy kompetensiya: ona tili va o‘rganilayotgan til madaniyatini bilish; ona tili va tarjima qilingan til mamlakati madaniyatini rivojlantirish tajribasini, ularning madaniyati o‘zaro ta’sirida tahlil qilish qobiliyati, shuningdek o‘z aksini ikki mamlakat tillarida kuzatib borish; muloqot jarayonida sotsiolingvistik va sotsial-madaniy axborot kommunikatsion texnologiyalardagi qiyinchiliklar; og‘zaki va yozma nutqda rasmiy va norasmiy muloqot normalarini hisobga olish.

To‘rtinchisi, diskursiv kompetensiya: kommunikativ bayonotlarning har xil turlarini tushunish, shuningdek, aloqa maqsadiga erishish uchun turli funksional uslublarning yaxlit, izchil va mantiqiy bayonlarini qurish qobiliyati; so‘zlashuv turiga qarab lingvistik vositalarni tanlashning to‘g‘riligi.

Beshinchisi, strategik kompetensiya: lingvistik vositalarning yetishmasligi sababli aloqa jarayonida muvaffaqiyatsizliklarni bartaraf etish va aloqa samaradorligini oshirish uchun og‘zaki va og‘zaki bo‘lmagan strategiyalardan foydalanish qobiliyati.

Oltinchisi, ijtimoiy kompetensiya: sheriklari bilan o‘zaro munosabat qilish qobiliyati va istagi; boshqalarga muloqotni davom ettirishga yordam berish qobiliyati, muloqot ishtiroychilari o‘rtasida tushunmovchilik jarayonida yuzaga keladigan vaziyatlarni yengish uchun.

Yettingchisi, kasbiy kompetensiya: egallagan va shakllangan chet tili, xususan ingliz tili bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarni kasbiy maqsadlarda, tilni o‘rganish jarayonida muvaffaqiyatli ishlatalish qobiliyati. Ingliz tilini veterinariya yo‘nalishlarida o‘qitish bo‘yicha metodik adabiyotlarni, xususan nutqning leksik tomonini o‘rgatish tamoyillarini, leksik minimumni shakllantirish uchun leksik birliklarni tanlash prinsiplarini tahlil qilish asosida, rivojlanish uchun mashq majmuasiga talablarni shakllantirish mumkin. Masalan, bunda yaratiladigan leksik ko‘nikmalarni shakllantirishning asosiy bosqichlari va leksik kompetensiyaning rivojlanish darajalari aks etishi kerak. Shuningdek, veterinariya kabi kasbiy sohalarning leksik birliklarini ingliz tilida semantizatsiyasi, leksik birliklardan professional foydalanish, nazariy jihatdan kasb sohasining leksik birliklari haqida chuqurma’lumotga ega bo‘lish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yana shuni ham ta’kidlash joizki, veterinariya yo‘nalishlarida kompleks ingliz tilini o‘qitishda kommunikativ yondashuvga asoslangan bo‘lishi kerak. Bunda til kompetensiyasi so‘zlarni to‘g‘ri shakllantirish va so‘zlardan foydalanishni o‘z ichiga olganligi sababli, o‘rganish birligi semantik va axborot kommunikatsion texnologiyalar, o‘rganilayotgan tilning o‘ziga xos xususiyatlarini anglatadigan so‘zlar va iboralar bo‘lishi kerak.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Veterinariya yo‘nalishlarda ingliz tili kasbiy malakasini shakllantirishni yanada batafsilroq ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, umumiy madaniy va kasbiy ma’noda muloqotga tayyorlikning kombinatsiyasini kompetensiaga asoslangan yondashuvning rivojlanish tarixida ko‘rish mumkin.

Tadqiqotchilar uning ta’lim jarayonida shakllanishining ush bosqichini ajratib ko‘rsatadilar.

Birinchi bosqichda ilmiy apparatga kompetensiya toifasi kiritiladi, u hali ham kompetensiya toifasidan kam farqlanadi. Ularni amalga oshirish talabi “kommunikativ kompetensiya” tushunchasining kiritilishi bilan bog‘liq holda paydo bo‘ldi. Aloqa jarayoni samaradorligini asoslash uchun vakolatlar/imkoniyatlar toifalari shakllana boshladи. Uslubiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, «kompetensiya» atamasi ilk bor Uayt tomonidan 1959-yilda nofilologik ta’lim muassasasi bitiruvchisi shaxsiyatining u bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan qobiliyatlarini tavsiflash uchun muomalaga kiritilgan. Kognitiv kompetensiyalar va motivatsion tendensiyalar o‘rtasidagi munosabatni postulyatsiya qilgan Uayt kompetensiyanı odamning atrof-muhit bilan samarali o‘zaro aloqasi deb shakllangan qobiliyat sifatida izohladi. Ushbu kompetensiyalarni o‘quv jarayonida o‘zlashtirish uchun kerakli va yetarli miqdordagi haqiqiy aloqa ob’ektlari va usullari ular bilan ishslash har bir o‘rganilayotgan fan yoki ta’lim yo‘nalishi doirasida har bir ta’lim bosqichi talabasi uchun belgilanadi. Shunday qilib, ingliz tili kasbiy kompetensiysi deganda biz veterinariya yo‘nalishdagi talabalarning ingliz tilidagi professional sohaning leksik birliklaridan foydalanish bo‘yicha texnik ko‘nikmalarini va ingliz tilidagi professional muloqotning turli holatlarida kommunikativ niyatlarni amalga oshirishni anglatadi.

Axborot kompetensiyalari zamonaviy hayot sharoitida eng talab qilinadigan narsalardan biri hisoblanadi. Bizning ilmiy ishimizning maqsadi ham zamonaviy jamiyat taraqqiyoti sharoitida ingliz tili bo‘yicha professional axborot-kommunikatsiya imkoniyatlarini o‘rganish va ulardan samarali foydalanish istiqbollarini ilmiy tadqiq qilishdir. Kompyuter texnologiyalarining rivojlanishi jamiyatga bizning faoliyatimizning barcha sohalariga: ilm-fan, madaniyat, ta’lim, ishlab chiqarish, menejmentga kirib boruvchi tez sur’atlar bilan rivojlanib borayotgan integratsiya jarayonlari bilan bog‘liq global axborotlashtirish muammosiga yaqinlashishga imkon beradi. Kasbiy yo‘naltirilgan ta’lim sohasida ingliz tilini o‘zlashtirishning motivatsiyasi o‘zga mamlakat va madaniyat kasblari vakillari bilan jonli muloqotda qatnashish istagidan kelib chiqadi. Kasbiy va mehnat faoliyati natijasida turli kasb egalari boshqa mamlakatlardagi hamkasblari bilan professional aloqalarni o‘rnatish uchun favqulodda ehtiyojga duch kelishlari mumkin. Bu ularga yangi professional darajaga chiqishga imkon beradi.

Nofilologik yo‘nalishda ingliz tilini ixtisoslashtirilgan o‘qitish elementlari XX asrning 50-yillarida, ya’ni ixtisoslashtirilgan matnlar bilan o‘quv qo’llanmalari yaratila boshlanganda paydo bo‘ldi. Soha olimlari ingliz tilini lingvistik bo‘lmagan ta’lim muassasalarida quyidagi yo‘nalishlarda o‘qitish zarur deb hisobladi:

a)
mutaxassislik bo‘yicha matn ustida ishslash;





TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



- b) og‘zaki nutqni rivojlantirish uchun “maxsus” mavzularni o‘rganish;
- c) tegishli mutaxassislik bo‘yicha minimal so‘z boyligini o‘rganish.

Ular ingliz tili bo‘yicha ish rejalarini asosiy fanlar ish rejalari bilan muvofiqlashtirish muhimligini ta’kidladilar. Yuqoridagi soha olimlarining ingliz tilini kasbiy yo‘naltirilgan o‘qitishning pedagogik nazariyalarini tahlil qilib, shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, professional yo‘naltirilgan til manbaini o‘rganayotganda talabaning maxsus bilimlarni olishga bo‘lgan intilishi bilan muvaffaqiyat o‘rtasida ikki tomonlama aloqani o‘rnatish muhimdir.

Ingliz tilidagi professional axborot-kommunikatsiya kompetensiyasi o‘quv jarayonida ijtimoiy media tarmoqlaridan foydalanish orqali talabalar o‘rtasida shakllanadi. Bunday kompetensiya, bizning fikrimizcha, vakolatga asoslangan, kognitiv-kommunikativ, fanlararo yondashuvlarning birligiga asoslanadi. Talabalarda ingliz tili bo‘yicha kasbiy axborot kompetensiyasini shakllantirish muloqotning umumiy didaktik prinsiplari, kasbiy yo‘nalish va axborot kompetensiyasining o‘ziga xos uslubiy prinsiplariga asoslanadi, bu veterinariya yo‘nalishdagi talabalarga ingliz tilini o‘rgatish paytida ijtimoiy media tarmoqlaridan foydalanishni o‘z ichiga oladi.

Kasbiy faoliyatda ishlataladigan nutq faoliyat turlariga integrativ yondashuv kommunikativ kompetensiyani tezlashtirishga va rivojlantirishga yordam beradi. Bu jarayonda o‘qituvchilardan ham, talabalardan ham yuqori interfaol bo‘lish talab etiladi. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun tadqiqotchilar va olimlar tomonidan turli zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ko‘plab mashqlar tavsiya qilingan va ulardan foydalanish yo‘llari ko‘rsatilgan.

Ingliz tili mashg‘ulotlarida gap bo‘laklari yoki leksikani qiyoslab o‘rgatish Veterinariya va veterinariya meditsinasi yo‘nalishi talabalarida bir vaqtning o‘zida mutaxassislik va sohaga oid atamalarni yaxshiroq eslab qolishiga yordam beradi. Bundan ko‘rinadiki, professional ta’lim muassasalarining veterinariya meditsinasi, farmasevtikasi yo‘nalishlarida ingliz tilini ularga o‘qitishda fanlararo aloqa chet tili mashg‘ulotlarida bevosita kasbga, sohaga oid autentik manbalardan samarali foydalanish natijasida talabalarning mutaxassislikka oid bilimlarining boyib borishga va sohaga doir eng so‘nggi yangiliklardan xabardor bo‘lishga olib keladi va natijada talabalarning ingliz tilini o‘rganishga bo‘lgan ishonchining oshishiga yordam beradi. Bizningcha, ingliz tilini mutaxassislik fanlari bilan integratsiyalashtirib o‘qitishda ingliz tili mavzulari mutaxassislik fani mavzulari bilan bog‘lashda bo‘lajak mutaxassisning kasbiy ehtiyojlaridan kelib chiqib saralanishi muhim.

Hozirgi kunda xorijiy tillarni o‘rganish sohasida tilni mustaqil o‘rganish yoki o‘qitish (til o‘rgatish faoliyati bilan shug‘ullanish)ning imkoniyatlari MOOSs (massive open online sources), turli internet ensiklopediyalar, dasturlar, universitetlar, institutlar, maxsus markazlar tomonidan tashkil qilingan onlayn kurslar tufayli tobora yengillashib bormoqda. Bundan tashqari, televiedeniya va radio, internet orqali tashkil etilgan onlayn kurslar





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



shunchalik ko‘payib bormoqdaki, ular tomonildan til o‘rganish yoki o‘rgatish bo‘yicha maxsus metodikalar ishlab chiqilib, o‘rganish uchun taklif qilinmoqda.

O‘zlashtirilgan bilimlarni axborot kommunikatsion texnologiyalar vositasida chuqurlashtirish natijasida talabalarda muayyan darajada amaliy ko‘nikma va malakalar hosil qilinadi. Pedagogik hamkorlikni vujudga keltiradigan texnologiyalarning asosiy negizini turli o‘quv mashg‘ulotlarida talabalarining birgalikda, jadal harakat qilishlari uchun qulay sharoit yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Ma’lumki, talabalar egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarning darajalari turlisha bo‘ladi. Ba’zi bir talabalar taqdim qilingan axborotlarni tez o‘zlashtirsalar, boshqalari mazkur ma’lumotlarning mazmun-mohiyatini tushunib yetishlari uchun muayyan vaqt talab qilinadi. Bunday talabalar bilan elektron ta’limiy trenajyorlar asosida o‘quv materiallari ustida ishlash zarurligi vujudga keladi. Ayrim talabalar bilmaganlarini o‘qituvchilari yoki guruhdoshlaridan so‘rashga tortinadilar. Shu bilan bir qatorda, o‘zлari tushunmagan o‘quv materiallari ustida ishlash bunday talabalar uchun zerikarli va qiziqarsiz bo‘lib tuyuladi. Bunday vaziyatda ingliz tili o‘qituvchisi elektron ta’limiy trenajyorlardan samarali foydalanishi kerak. Bunda kichik guruhlarda ishlash metodidan foydalanish samarali metog xisoblanadi. Har bir kichik guruhga o‘qituvchi tomonidan alohida-alohida ETT (elektron ta’limiy trenajyorlar) asosida topshiriqlar beriladi. Guruh a’zolari mazkur topshiriq doirasida o‘z vazifalarini bo‘lib oladilar. Ularning o‘z vazifalarini bajarishga mas’ullikkleri o‘qituvchi tomonidan tushuntiriladi, ularning e’tiborlari o‘quv topshirig‘iga jalb qilinadi. Guruhda ishlash jarayonida har bir talaba o‘z oldiga qo‘yilgan vazifani bajarish bilan chegaralanib qolmasdan, umumiyligi topshiriqlarini bajarishga ham safarbar etiladilar. Mazkur jarayonda talabalarni berilgan topshiriqlarni bajarishga mas’uliyat bilan qarashga yo‘naltiriladi. Bu jarayonda yaxshi o‘zlashtirmaydigan talabalar elektron ta’limiy trenajyorlar asosida bilimlarini mustahkamlaydilar. Natijada, bo‘sish o‘zlashtiruvchi talabalarining ruhiy quvvatlari ortadi, elektron ta’limiy muhit ularga yangi kuch bag‘ishlaydi va imkoniyatlarini kengaytiradi. Talabalarning o‘quv materiallarini astoydil o‘rganishlari, tushunishlari, ular ustida o‘ylashlari, mustaqil yechimlar topishlari uchun qulay didaktik vaziyat vujudga keltiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 19 майдаги ПҚ-5117- сонли “Ўзбекистон Республикасида хорижий тилларни ўрганишни оммалаштириш фаолиятини сифат жиҳатидан янги босқичта олиб чиқиш чора-тадбирлари тўғрисида” ги қарори.

2. Ковалева А.Г. Обучение иностранному языку в условиях информационнокоммуникационной профессиональнообразовательной среды // Язык в сфере профессиональной коммуникации: Часть 2: Материалы международной





TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



научнопрактической конференции преподавателей, аспирантов и студентов, 19-20 апреля 2018 года. — Екатеринбург: Издательство УМЦ-УПИ, 2018. — С. 57–62

3. Родионова Н.В., Яранская М.Н. Потенциальные возможности использования социальных сетей в качестве образовательного ресурса // Сб. материалов Всероссийской студенческой научно-практической конференции «Научное сообщество студентов: проблемы художественного и музыкального образования». — Чебоксары: Чувашский государственный педагогический университет им. И.Я.Яковлева. — 2017. — С. 66–69.

4. Сайидахмедов Н. Янги педагогик технологиялар. — Тошкент: Молия, 2003. 5. Беспалко В. П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения. — М. : Изд-во Института профессионального образования Министерства образования России, 1995.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



YANGI O'ZBEKISTON-IJTIMOIY DAVLAT

Abduvaliyeva Nasiba Ilxomovna

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti

Samarqand filiali 1-kurs talabasi

ANNOTATSIYA: Ushbu maqola jahon mamlakatlari orasida shiddat bilan rivojlanib kelayotgan yangi O'zbekiston haqida fikrlar va ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, ushbu maqola orqali yangi O'zbekiston góyasining ma'nosi va shu paytgacha o'zgarishlar qilingani, iqtisodiyot va siyosatdagi, din va dunyoviy ta'lindagi rivojlanishlar, yoshlarga yaratilayotgan yanada keng imkoniyatlar haqidagi fikrlar yoritib berilgan.

KALITSO'ZLAR: ijtimoiy himoya, adolatli jamiyat, yangi islohotlar, ijtimoiy davlat, iqtisodiy yondashuv.

KIRISH

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev 2021-yil 7-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 29 yilligiga bag'ishlangan tabrigida "Hozirgi kunda O'zbekiston ijtimoiy davlat va adolatli jamiyat qurish sari dadil bormoqda. Shu sababli "Yangi O'zbekiston-ijtimoiy davlat", degan tamoyilni konstitutsiyaviy qoida sifatida muhrlashning vaqtি-soati yetdi" deb ta'kidlagadi.

Shular qatorida yashash uchun zarur resurslar - ichimlik suvi, tabiiy gaz, elektr energiyasi, transport va boshqa qulayliklar bilan ta'minlanish, majburiy mehnatga taqiq qo'yish ham ijtimoiy davlatda muhim ahamiyat kasb etadi.

ASOSIY QISM

Muhtaram Prezidentimiz o'z nutqlarida aytib o'tganlaridek, bugungi kunda butun xalqimizning qalbidan chuqur joy olgan, umummiliy harakatga aylanib borayotgan "Yangi O'zbekiston" g'oyasi zamirida buyuk va ulug' ajodolarimiz, umuman olganda, milliy tariximizda birinchi va ikkinchi uyg'onish davrlariga asos solgan alloma bobolarimizning orzu-intilishlari va armonlari ham mujassam desak, mubolag'a qilmagan bo'lamic. Hozirgi kunda Yurtimizda yana bir muhim uyg'onish jarayoni kechmoqda. Shuning uchun "Yangi O'zbekiston" va "Uchinchi Renessans" so'zlari hayotimizda o'zaro uyg'un va hamohang bo'lib yangramoqda.

Yangi O'zbekiston-demokratiya, inson huquq va erkinliklari borasida umum e'tirof etilgan normal va prinsiplarga qat'iy amal qilgan holda, jahon hamjamiyati bilan do'stona hamkorlik tamoyillari asosida rivojlanadigan, xalqimiz uchun erkin, obod va farovon hayot yaratib berishdan iborat bo'lgan davlatdir.

Biz - O'zbekiston fuqarolari jamiyatimizning siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy qiyofasi shiddat bilan o'zgarib, hayotimizda yangicha munosabatlar, yangi imkoniyatlar va qadriyatlar shakllanayotganini hammadan ham ko'proq his etmoqdamiz. Ayniqsa, "inson huquq va erkinliklari", "qonun ustuvorligi", "ochiqlik va oshkoraliq", "so'z erkinligi ", "din





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



va e'tiqod erkinligi", "jamoatchilik nazorati", "gender tenglik", "xususiy mulk dahlsizligi" singari boshlang'ich demokratik tushunchalar va hayotiy ko'nikmalar hozirgi vaqtida real voqelikka aylanib borayotgani e'tiborlidir.

XULOSA

Bugun mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar jadallahsgani va O'zbekiston yangi taraqqiyot yo'llida qadam qo'ygani, ilmiy muhitning o'zi esa ancha murakkab va serqirra bo'lib borayotgani barchaga ayon bo'ldi. Shuning uchun 2022-2026 yillarda Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasining qabul qilinishi va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga tuzatishlar kiritish hamda ularni umumxalq muhokamasiga kiritish jarayonining boshlanishi qonuniy ko'rindi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shavkat Mirziyoyev 2021-yil 7-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 29 yiliga bag'ishlangan tabrige.
2. Yangi O'zbekistonning barpo bo'lishi islohotlarning birinchi bosqichi natijalari va keyingi taraqqiyot vazifalari.
3. "2021-2030 yillarda O'zbekiston Respublikasida kambag'allikni qisqartirish strategiyasi".

